

**XURSHID DO'STMUHAMMADNING "SAF" HIKOYASIDA
TASVIR VA IFODA O'ZIGA XOSLIGI
To'liboyeva Gulnura Baxadir qizi
Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat
universiteti magistranti**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6636057>

Annotatsiya: Maqolada Xurshid Do'stmuhammadning "Saf" nomli maqolasi namunasida yozuvchi tasviri va ifodasidagi o'ziga xoslik ochib beriladi. Zamonaviy modernistik hikoyalar haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: modernistik, bosh qahramon, uslub, shakl, realistik, personaj, ramziy-majoziy obraz, hikoya.

Zamonaviy o'zbek hikoyachiligini Erkin A'zam, Xurshid Do'stmuhammad, Abduqayum Yo'ldosh, Nazar Eshonqul, Ulug'bek Hamdam, Zulfiya Qurolboy qizi singari ijodkorlarsiz tasavvur qilish qiyin. Ular yaratgan hikoyalar ham uslub, ham shakl jihatidan o'zgarib bormoqda. Xususan, o'zbek hikoyachiligi ikki xil uslubiy yo'nalishda rivojlanayotganligini kuzatish mumkin: an'anaviy realistik va modernistik. Zamonaviy o'zbek yozuvchilari o'zbek hikoyanavislarining, shuningdek, jahon hikoyachiligi ijodiy tajribalari bilan, ramziy-majoziy obrazlar va uslub jihatdan G'arb adabiyotiga xos modernistik shakl va usullardan keng foydalanib, hikoyachilikda yangicha badiiy-estetik yangilanishlar kashf qilmoqda. Ularda qahramon ruhiyatiga yanada chuqur kirish, hatto yozuvchi fantaziyasi bilan yaratilgan to'qima obrazlar talqini ham uchraydi.

O'zbek xalqining taniqli yozuvchisi Xurshid Do'stmuhammad 1951 yili Toshkentda tug'ildi. ToshDU (hozirgi O'zbekiston Milliy universiteti)ning jurnalistika fakultetida o'qidi. Mehnat faoliyatini O'zbekiston "Fan" nashriyotida boshladi. "Fan va turmush" jurnalida, "Qishloq hayoti" gazetasida ishladi. 1986 yildan "Yosh kuch" jurnalida bo'lim mudiri, bosh muharrir o'rinbosari, bosh muharrir, "Hurriyat" gazetasida bosh muharrir, "O'zbekiston matbuoti" jurnalida bosh muharrir, O'zbekiston ommaviy axborot vositalarini demokratlash va qo'llab-quvvatlash ijtimoiy-siyosiy jamg'armasida ham rais sifatida faoliyat ko'rsatdi. Hozirda filologiya fanlari doktori Xurshid Do'stmuhammad O'zbekiston Jahon tillari universitetida kafedra mudiri.

Adibning dastlabki hikoyasi 1981 yili "Guliston" jurnalida, "Nigoh" nomli birinchi qissasi esa 1987 yili "Yoshlik" jurnalida e'lon qilindi. "Hovli etagidagi uy" nomli birinchi kitobi 1989 yili nashr etildi. Shundan so'ng uning "Panoh", "Oromkursi", "So'roq", "Sof o'zbekcha qotillik" qissalari, "Bozor" romani va o'nlab hikoyalari chop etildi. Adibning "Jajman" kitobidan bir necha qissalari qatori "Mahzuna", "Jajman", "Ibn Mug'anniy", "Ko'z qorachig'idagi uy" singari hikoyalar ham joy olgan. Adib "Bozor" romani, "Hijronim mingdir mening" va

“Ozod iztirob quvonchlari” kitoblari uchun 2000 yilning “Eng yaxshi yozuvchisi” yo‘nalishi bo‘yicha “Ofarin” mukofotiga sazovor bo‘ldi. “Chayongul” badiiy filmi tomoshabinlar tomonidan iliq kutib olindi. “Jimjixonaga yo‘l”, “Nusxakashning merosxo‘ri”, “Beozor qushning qarg‘ishi”, “Jim o‘tirgan odam” va “Qichqiriq” hikoyalari adibning keyingi yillar ijodida yangi sahifa ochdi.

Adibning “Qazo bo‘lgan namoz”, “Ozod iztirob quvonchlari”, “Bozor”, “Hamid A‘lamovning aytolmagan gaplari”, “Beozor qushning qarg‘ishi”, “Qissalar”, kitoblariga uning qalamiga mansub turli janrdagi asarlar jamlangan. Tarjimon sifatida yapon adibi Akutagava Ryunoskening “Rasyomon darvozasi” hikoyasini, Temur Po‘latovning “Yetti huzur-halovat va qirq qayg‘u-alam” romanini o‘zbekchaga o‘girdi. Shuningdek, Ignasio Aldekoa, Ales Juk, Boris Sachenko, Andrius Riuk asarlarini tarjima qildi. U adabiyotshunos sifatida ham ko‘plab tahliliy maqolalar yaratdi.

Xurshid Do‘stmuhammad 1997 yilda “Shuhrat” medali, 1998 yilda “O‘zbekiston faxri” ko‘krak nishoni, 2007 yilda “Do‘stlik” ordeni bilan mukofotlangan.

Xurshid Do‘stmuhammad hikoyalari markazida asosiy qahramon sifatida muallifning o‘zi turadi. U barcha hikoyalarda o‘zining Odam va Olam to‘g‘risidagi iztirobli o‘ylarini, inson tabiatining jumboqlari xususidagi dardli kechinmalarini, odamlararo munosabat murakkabliklari haqida fikr yuritadi. Xuddi mana shu jihat adib hikoyalarini ich-ichidan o‘zaro birlashtirib turadi. Bu hikoyalarning har biri talaygina o‘ziga xos jihatlarga ega bo‘lib, ularni yana o‘zaro uyg‘unlashtirib turadigan bir xususiyatga mavjud. Bu ham bo‘lsa mazkur asarlarning barchasida o‘z-o‘zi bilan kurashib, ich-ichidan iztirob chekayotgan, o‘zining xatti-harakati, holatiga aniq baho berishga ikkilanayotgan, tevarakatofidagilarning xulqi, fe‘l-atvoridagi illatlar, ularning o‘zaro munosabatlaridagi murakkabliklar to‘g‘risida o‘ylab azob chekayotgan odamlar olami ko‘rsatiladi. Bu olam esa, har bir kishining o‘zini yaqindan tanib olishiga, kundalik turmushning o‘ziga mavhum bo‘lib kelayotgan jumboqlarini oz-moz bo‘lsa-da idrok qilishiga yo‘l ochadi. Muallif asarlarida “hayot” tushunchasini anglash uchun qahramonlarning o‘zi va o‘zligi bilan to‘qnashuvi hodisasini kuzatishimiz mumkin. Xususan Xurshid Do‘stmuhammad o‘zining “Saf” nomli hikoyasida hayotni safga qiyoslaydi, ya‘niki u o‘zi yaratgan obraz tilidan safning oxiri hayotning boshlanishiga, qatorning boshini ularning intihosiga qiyos qiladi. Hikoyani o‘qir ekansiz o‘zbek xalqining milliy-urf odatlaridan biri hisoblangan mahalla erakklarining nahor oshiga birga yig‘ilib borishi tasvirida butun hayot haqiqatini ochib berishga harakat qiladi. Hikoya qahramoni Rayim chol obrazining ruhiy dunyosini ifoda qilish orqali muallif betakror o‘xshatishlar

bilan o'z maqsadini kitobxonga ifoda qiladi. Chunonchi, Rayim cholning so'nggi paytlarda tetapoya boladek atak-chechak yuradigan bo'lib qolgan degan tasvirni berish orqali, hayotni xuddi shu alfozda boshlab yana hayotimiz yakunida ham o'sha atak-chechak qadamlar ila yakunlanishini ifoda qiladi. Qahramonning kunda-kunora darvozadan qo'shaloq simyog'ochgacha ya'ni qo'shnilar yig'ilib oyga ketadigan joygacha masofani bosib o'tish davomida, o'zining har bir qadam tovushini diqqat bilan tinglashi va bosib o'tilgan masofani umrning o'lchoviga va uning safdan egallagan o'rnini esa shu o'lchovga bosilgan muhrga qiyos qilishi ham kitobxonda o'ziga xos dunyoqarashni tarbiyalaydi. Bundan tashqari hikoyadagi: "Rayim chol qariyb ellik yildan buyon oshga chiqadi. Esida, rahmatli otasi ro'parasiga o'tqazib: "O'g'lim, endi sen ham mahalla-ko'yga aralash. Men bir kun sog' bo'lsam, ikki kun nosog'man. Eshigimizdan labbay deb chiqadigan erkak sensan", deya aytgan edi..." degan tasvirlar kitobxonlarda ming asrlar davomida shakllanib sayqal topib kelayotgan milliy qadriyatlarga hurmat va o'zilgizni yo'qotmaslik haqidagi qarashlarimizga ozuqa bo'lishi hech gap emas. Adib hikoyada hayot haqidagi qarashlarini bosqichma bosqich rivojlantirib borishini quyidagi satrlardan anglash qiyin emas: "U dastlab oshga chiqqan kezlari keksa-yu yosh, qo'ni-qo'shni bilan salomlashardi-da, ularga ergashar, ya'ni safning eng oxirida qo'l qovushtirib boraverardi. Biron yilgacha shunday bo'ldi. Ikki uy naridagi qo'shning o'g'li ham oshga chiqishni boshladi-yu, Rayim oxirdan ikkinchi bo'ldi. Shunda u birdan uylg'ayib qolgandek tuyuldi. Yillar o'tdi va uning ortidan saflanuvchilar soni yanada ko'paydi. Juda o'rtada bo'lmasa-da, shunga yaqinroq joyda edi uning joyi..." Shuni ta'kidlash kerakki, yuqoridagidek tasvirlarning keltirilishi kitobxonda voqelikdan anglashilgan fikrlarni anglash uchun ko'pgina savollar javobining ayon bo'lishiga yordam beradi. Muallif yuqoridagi fikrlarini asta-sekinlik bilan rivojlantirib boradi va quyidagi fikrlarni qahramon tilidan keltiradi: "Rayim chol orqasida gurunglashib kelayotgan qo'shnilarni xayolan bir-bir ko'z o'ngidan o'tkazadi. Daroz, o'rta bo'y, pakana... Savlatli, suxanboz, ko'rimsiz... Saf uchun buning farqi yo'q. Nasl-nasabi, toparmon-tutarmonligidan qat'iy nazar, ular hayotning eng odil taomiliga bo'ysunishadi – har kim yoshiga qarab o'z o'rnini egallaydi. Bu "o'rin" muttasil ilgari siljiydi – orqadan o'rtaga, o'rtadan oldinga, so'ngra... saf tark etiladi..." shu fikrlarni kitobxon tafakkur chig'irig'idan o'tkazar ekan, hayot uchun tashqi ko'rinish, nasl-nasab, mansab kabi tushunchalarning ahamiyatsiz ekanligi, umr o'tkinchiligi haqida haqiqatlarni anglab yetadi. Adib tasviridagi o'ziga xoslik shundaki u fikrlarini ifoda qilar ekan, o'quvchi xayolini u avval hayotida kuzatgan ammo e'tibor qaratmagan jihatlariga e'tiborli bo'lish zarurligini uqtiradi.

Adib asarlari o'zbek adabiyotida inson obrazini aks ettirish, turmush voqeligini tahlil qilishda jiddiy o'zga-rish, salmoqli yangilanish ro'y berganiga isbot bo'la oladi. Yozuvchining qirq yil mobaynida bitgan asarlarida, xususan, hikoyalarda fikrlaydigan, o'z-o'zini so'roq qiladigan, o'zini va boshqalarni kuzatib, hayotdan yangi ma'nolar topa-digan odamlarning o'ziga xos olami ochib beriladi. Bu odamlar bizni kundalik turmush voqeligining ko'pchilik e'tibor qilmagan jihatlaridan xabardor qiladi. Demak, adibning har bir asari o'quvchiga inson jumbog'i, hayot murakkabliklari to'g'risida adabiyotimizda avval aytilmagan muayyan yangilikni taqdim etadi. Yozuvchi bunga personajlarning ruhiyatiga chuqurroq kirib borib, ularning kayfiyati, kechinmalarini ta'sirchan tasvirlash hamda milliy turmush tarzimizni hozirgi zamon o'zgarishlaridan kelib chiqqan holda tahlil qilish orqali erishadi.

Kuzatganimizdek, Xurshid Do'stmuhammad hikoyasida qavatma-qavat ma'no mavjud. Umuman, adib asarlari adabiyotning asl asarlari singari hayot hodisalari haqida o'ylab, fikr yuritadigan odamlar olami bilan yaqindan tanishtirib, har birimizni o'zimizning fe'l-atvorimiz, xulqimiz to'g'risida o'z-o'zimizga savol berishimizga, ko'rib-kechirganlarimizni tahlil etishga, turmush voqeligiga turli tomondan qarab, mushohada yuritishga undaydi va dunyoqarashimizni kengaytirib, ongimizda yangi olam yaratadi. Chunki ular qachondir tuygan tuyg'u-hissiyotlarimizni, qalbimizda kechgan, ammo keng olamga chiqa olmagan o'y-kechinmalarni eng ta'sirchan so'zlarda namoyon etib, bizga taqdim qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Izzat Sulton. "Adabiyot nazariyasi". T.:2005
2. Dilmurod Quronov. "Adabiyot nazariyasi asoslari". T.:2019
3. Xurshid Do'stmuhammad. "Hikoya". T.:2021
4. S. Mirvaliyev, R. Shokirova. "O'zbek adiblari". T.:2016